O‘smirlarda yuzaga keladigan destruktiv xulqning shakllanishi

Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

O’zMPU Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Muradillayeva Eleinora

O’zMPU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’smirlik davrida kuzatiladigan destruktiv xulq-atvorning shakllanishi jarayoni, uning psixologik,pedagogik va ijtimoiy omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.O’smirlik davrining o’ziga xos xususiyatlari, shaxs rivojlanishidagi inqirozli bosqichlar, oila muhiti, tengdoshlar ta’siri, ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy raqamli muhitning ta’siri keng yoritiladi.Shuningdek, destruktiv xulqning oldini olish va profilaktika qilish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so’zlar: o’smirlik davri, destruktiv xulq, agressivlik, deviant xatti-harakat, ijtimoiylashuv, oila tarbiyasi , profilaktika, psixologik inqiroz.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the formation process of destructive behavior during adolescence, as well as its psychological, pedagogical, and social factors. The specific characteristics of adolescence and crisis stages in personality development are widely discussed. In addition, the influence of the family environment, peer relationships, mass media, and the modern digital environment is thoroughly examined. Practical recommendations for the prevention and reduction of destructive behavior are also developed.

Key words: adolescence, destructive behavior, aggression, deviant behavior, socialization, family education, prevention, psychological crisis.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ процесса формирования деструктивного поведения в подростковом возрасте, а также его психологических, педагогических и социальных факторов. Широко рассматриваются особенности подросткового периода и кризисные етапы развития личности. Кроме того, подробно анализируется влияние семейной среды, взаимоотношений со сверстниками, средств массовой информации и современной цифровой среды. Также разработаны практические рекомендации по профилактике и предотвращению деструктивного поведения.

Ключевые слова: подростковый возраст, деструктивное поведение, агрессия, девиантное поведение, социализация, семейное воспитание, профилактика, психологический кризис.

O’smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayoni keskin sur’atlarda kechadi. Organizmda fizologik o’zgarishlar sodir bo’ladi, dunyoqarash kengayadi, mustaqil fikrlash shakllanadi, shaxsiy “men” konsepsiyasi rivojlanadi. Shu bilan birga, bu davr ziddiyatlar, ichki qarama-qarshiliklar va ruhiy beqarorlik bilan ham tavsiflanadi. Aynan o’smirlik bosqichida ayrim yoshlar ijtimoiy me’yorlarga zid bo’lgan, o’ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazuvchi xatti-

harakatlarni namoyon eta boshlaydilar. Bunday xulq-atvor ilmiy adabiyotlarda “destruktiv xulq” yoki “deviant xulq” deb yuritiladi.

Destruktiv xulq – bu shaxsning ijtimoiy muhit bilan moslashuvini qiyinlashtiruvchi,jamiyat qabul qilgan qadriyat va normalarga zid bo’lgan xatti-harakatlar tizimidir.Bugungi globallashuv , axborot texnologiyalari rivoji, urbanizatsiya jarayonlari o’smir shaxsiga kuchli ta’sir ko’rsatmoqda.Shu sababli o’smirlarda destruktiv xulqning shakllanish omillarini chuqur o’rganish va uning oldini olish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Destruktiv xulq-atvorning namoyon bo‘lishini o‘rganish muammolari bilan xorijlik olimlar: E.Dyurkgeym, R.Merton, I.Gofman, E.Lemert, G.Bekker, N.Smelzer A.Koen, Z.Freyd, Ch.Lombrozo, U.Sheldon va boshqalar shug‘ullangan; Rossiyada deviant xulq-atvorning turli jihatlari Ya.I.Gilinskiy, Yu.A.Kleyberg, Ye.V.Zmanovskaya, L.B.Shneyder, V.I.Kudryavsev, I.S.Kon kabi bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. V.D. Mendelevich, A.Ye. Lichko, S.A. Belicheva va boshqalar. Rossiyada deviant xulq-atvorning madaniy jihatining asoschisi Ya.I.Gilinskiy "deviant xulq-atvor" atamasini muomalaga kiritgan. Ya.I. Gilinskiyning fikricha, hozirgi sharoitda deviatsiyaning asosiy manbai jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi, turli ijtimoiy guruhlar uchun ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi yuqori darajadagi farqdir. Ushbu pozitsiyalarning har biri mavjud bo‘lish huquqiga ega, chunki ular amalda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni kesib o‘tadi. Shu bilan birga, mualliflarni uni topishga intilish birlashtiradi.

O’smirlik davri taxminan 12-16 yosh oralig’ini qamrab oladi.Bu davrning asosiy belgilaridan biri – shaxsiy mustaqillikka intilishdir. O’smir o’z fikrini himoya qilishga , mustaqil qaror qilishga harakat qiladi.Biroq uning hayotiy tajribasi yetarli bo’lmagani sababli ko’plab qarorlari hissiyotlarga asoslanadi.Mazkur davrda quyidagi psixologik xususiyatlar kuzatiladi:

- Emotsional beqarorlik;
- O’z-o’zini baholashdagi o’zgaruvchanlik;
- Tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog’liqlik;
- Adolat va haqiqatni keskin himoya qilishga intilish;
- Tajriba orttirishga, yangilikni sinab ko’rishga qiziqish.

Agar bu xususiyatlar to’g’ri yo’naltirilmasa yoki o’smir ijtimoiy qo’llab quvvatlashdan mahrum bo’lsa, salbiy xatti-harakatlar yuzaga kelishi mumkin.Destruktiv xulq-atvor turli shakllarda namoyon bo’ladi.U ochiq agressivlikdan tortib, yashirin qarshilik yoki o’ziga zarar yetkazish kabi salbiy holatlargacha sabab bo’lishi mumkin.Ilmiy adabiyotlarda destruktiv xulq quyidagi ko’rinishlarga ajratiladi:

- Agressiv xulq – jismoniy yoki og’zaki tajovuz, boshqalarga zarar yetkazishga moyillik;
- Deviant xulq – jamiyat qoidalariga zid bo’lgan harakatlar (dars qoldirish,tartib buzish,yolg’on gapirish);
- Addiktiv xulq – zararli odatlarga qaramlik (internetga haddan tashqari bog’lanish, turli zarali moddalar);
- Autoagressiv xulq – o’ziga nisbatan salbiy munosabat, o’zini qadrlamaslik, o’z salomatligiga befarqlik;

Mazkur xatti-harakatlarning paydo bo'lishi ko'p omilli jarayon bo'lib, birgina sabab bilan izohlanmaydi.Oila muhitining ta'siri:Oila shaxs shakllanishining birlamchi va eng muhim instituti hisoblanadi.Bola dastlabki ijtimoiy tarbiyani aynan oiladfa oladi. Ota-onaning tarbiya uslubi o'zaro munosabatlari , farzandga bo'lgan e'tibori o'smir xulqining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.Quyidagi omillar destruktiv xulqning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin:

- Oiladagi doimiy nizolar;
- Zo'ravonlik yoki qo'pollik;
- Haddan tashqari qattiqqo'llik;
- E'tiborsizlik va mehr yetishmasligi;
- Nazoratning mutlaqo yo'qligi.

Aksincha, mehr-muhabbatga asoslangan, lekin me'yoriy nazorat mavjud bo'lgan oilalarda o'smirlar psixologik jihatdan barqarorroq bo'ladilar.O'smirlik davrida tengdoshlar guruhi alohida ahamiyat kasb etadi.O'smir o'z o'zini guruh orqali namoyon etadi, qabul qilinishga intiladi. Agar u salbiy odatlarga ega bo'lgan guruhga qo'shilib qolsa, destruktiv xulq shakllanishi ehtimoli oshadi.Guruh bosimi uni o'z xohishiga zid ravishda ma'lum harakatlarga undashi mumkin. Masalan, darsdan qochish, tartib buzish, xavfli tajribalarda ishtirok etish shular jumlasidandir.Shuningdek yashash hududi,maktab muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ham muhim rol o'ynaydi.Ijtimoiy nazorat sust bo'lgan muhitda salbiy xatti-harakatlar tezroq tarqaladi.Yana muhim ta'sirlardan biri bu – ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitdir.

Zamonaviy o'smir hayotini internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish qiyin.Zo'ravonlik sahnalari, agressiv o'yinlar , nojo'ya kontent o'smir psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.Raqamli muhit bir tomondan bilim olish va muloqot qilish imkonini bersa , ikkinchi tomondan salbiy axborot ta'sirini ham kuchaytiradi.Kiberbulling (internet orqali haqorat yoki tahqirlash) ham o'smirlar orasida keng tarqalgan muammo bo'lib, bu autoagressiv kayfiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.Shuningdek, yana bir ta'sirlardan biri bu individual-psixologik omil hisoblanadi.Har bir o'smirning temperamenti, xarakteri, asab tizimi xususiyatlari turlicha bo'ladi.

Ba'zi o'smirlar hissiyotlarini boshqarishda qiynaladilar,impulsiv qarorlar qabul qiladilar.O'zini past baholash, o'ziga ishonchsizlik,doimiy muvaffaqiyatsizlik hissi ham destruktiv xulqni kuchaytiradi.Qolaversa, o'smirning maktabdagi muvaffaqiyati ham muhim rol o'ynaydi.Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar, o'qituvchi bilan ziddiyatlar, sinfdoshlar tomonidan kamsitish salbiy xulq shakllamishiga turtki bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilib o'tilgan muammolar sababli yuzaga keladigan destruktiv xulqni erta aniqlash va uning oldini olish muhim vazifa hisoblanadi.Profilaktika va korreksion chora-tadbirlar amalda qo'llanishi lozim.Profilaktika chora-tadbirlarini quyidagi yo'nalishlarda olib boorish mumkin:

Oilaviy profilaktika:

- Ota-onalar uchun psixologik seminarlar;
- Oila ichidagi muloqotni mustahkamlash;
- Farzandni tinglash va qo'llab-quvvatlash;

Maktab miqyosida:

- Psixologik xizmat faoliyatini qo’llab-quvvatlash;
- Ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantiruvchi treninglar o’tkazish;
- Sport va ijodiy to’garaklarni kengaytirish;

Ijtimoiy darajada profilaktika:

- Yoshlar siyosatini takomillashtirish;
- Sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish;
- Axborot xavfsizligini ta’minlash.

O’smirlarda yuzaga keladigan destruktiv xulq murakkab, ko’p omilli jarayon bo’lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi.Oila muhiti,tengdoshlar guruhi, maktab sharoiti hamda raqamli makon bu jarayonda muhim rol o’ynaydi.Destruktriv xulqning oldini olish uchun erta profilaktika, sog’lom ijtimoiy muhit yaratish, o’smirning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olish zarur.Har bir o’smir individual yondashuvni talab qiladi,uning ichki dunyosini tushunish, hurmat qilish va qo’llab-quvvatlash orqali salbiy xatti-harakatlarning oldini olish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o’smirlik davri muammoli davr emas, balki imkoniyatlarga boy rivojlanish uchun ayni vaqt sifatida qarash va unga ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo’llash jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G’oziyev E. Umumiy psixologiya. – T “O’qituvchi”,2002.G’oziyev E.Inson psixikasining rivojlanishi.- T.:”O’qituvchi”,1996

2. Petrovskiy A.V.Umumiy psixologiya.- T.:”O’qituvchi”,1992. Davlatshin M.G.

3. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasiva pedagogic psixologiya. Gomezo tahririda.- T.:”Sharq”,1982.

4. Jurakulova Dildora Ziyadullayevna “Psixologik zo‘ravonlikning o‘smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta’siri” Maktabgacha va Maktab ta’limi , 2026-yil, fevral, 2(2)-son ta’limi.

5. “Behavior in Teenegers during Globalization”,Tolibdjanovna ,A.Z. (2023).Psychological Factors of Manifestation of Aggressive.